

---

Toshloq tumanidagi barcha mahallalarda “Bir bo’lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!” shiori ostidagi "Ma’naviyat festivali" hamda mustaqillik oqshomlari boshlangani haqida xabar bergan edik.

Mustaqilligimizning 33 yilligiga bag’ishlangan bayram shodiyonalari bugun “Chek” mahallasida keng nishonlandi.

Mahalla ahli, yoshlar va jamoatchilik vakillari jam bo’lgan bayram tantanalari ko’tarinki ruhda nishonlandi. Tadbirda so’z olgan tuman hokimi o’rinbosari E. Madaminov mahalla ahlini eng ulug’ va eng aziz ayyom bilan qizg’in tabrikladi.

Mustaqillik oqshomlari tumandagi har bir mahallalarda ana shunday ko’tarinkilik bilan o’tkaziladi.

2024-08-09 14:32:25